



## VOKAL MASHQLARINING AHAMIYATI

Dildora Ibragimova

Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi  
"Akademik xonandalik" bo'limi o'qituvchisi

Telefon: +998905855990

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada vokal ijrochiligi bo'yicha o'quvchilarining ovoz tarbiysi, diapazoni, to'g'ri nafas olish ko'nikmalari va o'tish(mutatsiya) davridagi muhim vokal mashqlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** vokaliz, tessitura, passaj, diapazon, registr, intonatsiya.

Vokal ijrochilagini o'rganish mashqlardan boshlanadi. Mashqlar to'g'ri tovush hosil qilish, ovozni yumshoqligi va o'sishi, jumlalarni to'g'ri tuzish, ortiqcha qisiqlikni yo'qotib erkinlikka erishish kabi qo'shiqchilikda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni egallashda yordam beradi. XVIII asrda yashab o'tgan mashhur Italiyan pedagogi Tyuzi ta'kidlaganidek - Mashqlar maqsadga erishishning yagona manbaidir. Vokal mashqlari gavda, bo'yin, tomoq va so'zlash apparatining mushaklarini erkin ishlashini ta'minlaydi. Mashqlar bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. O'quvchiga kuylashdan oldin mashqning vokal - texnik vazifalarini atroflicha tushuntirish kerak. Vokal mashqlar ikki turda foydalaniladi:

1. Legato

2. Stakkato

Legatoda qo'shiqchilik nafasi rivojlanadi, undan meyorida foydalanish ko'nikmalari hosil boladi. Registrlar va unli tovushlarning jaranglashi tekislanadi, ovozda kantinela paydo bo'ladi. Stakkatoda esa diafragma va ovoz psychalarining faollashib, tovushning nafasda tayanchi va aniq attaka paydo bo'ladi. Birinchi mashg'ulotlardan legato va stakkato mashqlaridan bir xil foydalanib borish maqsadga muvofiq. Mashqlarni oddiydan murakkabga qarab kuylatish tavsiya etiladi. Mashqlarni shunday tartibda kuylatish kerakki kuylashda yangi ko'nikmalarni o'rganish va ularni o'stirishga yordam bersin. Mashqlarni kuylatishda o'quvchiga orada dam berib, uning charchab va mashqlardan bezib qolishini oldini olish kerak. Tanish mashqlarni va qulay tessiturada kuylaganda o'quvchi toliqishni his etmaydi, aksincha yana kuylashni davom ettirishga extiyoj sezadi. Vokal mashqlarini kuylashning ilk damlarida qisqa va murakkab bo'limgan mashqlarni markaziy ishchi oktava diapazonida kuylatib, sinfdan-sinfga ularni murakkablatib borish mumkin. Diapazon asta-sekinlik bilan kengayadi, shu sababli shoshma-shosharlikka yo'l qoyib bo'lmaydi. Qo'shiqchi uchun eng muhim o'rta yoki markaziy ovoz chunki, ushbu diapazonda qo'shiqchining ovozi ishchan holatda bo'ladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda ovozni markaziy diapazonda erkin shakllantirishni o'rgatish kerak. Yuqori va pastki registrlarni egallashga oldindan harakat qilib bo'lmaydi, chunki ularni shakllantirish yaxshi jaranglaydigan o'rta tovushlardan kelib chiqadi. Yuqori notalarga ortiqcha qiziqish va tovush kuchini oshirish pastki notalarda "xrip" paydo bo'lishiga olib keladi. Ovozning tabiiyligini buzish kerak emas. Vokal mashqlarini kuylashda turli unli tovushlardan, so'z bo'g'inlaridan va notalarni nomlarini aytishdan foydalaniladi. Har bir o'quvchiga shunday unli tovush yoki so'z bo'g'inlarini tanlash zarurki, uning ovozi sifatli jaranglab, og'zi esa erkin va chiroyli holatda bo'lsin. Italiya pedagoglarining fikricha vokalizatsiyalarni kuylashda ko'proq a,e,o, unli tovushlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Vokalizatsiyada intonatsiya mustahkamlanadi, unli tovushlarning jarangdorligicha erishiladi, ovoz yengil bo'ladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarning 10-11 sinflarida mashqlar va vokalizlarni ko'proq solfedjio sifatida kuylash tavsiya etiladi. Vokalizatsiyaga o'tish muddatida har bir o'quvchiga alohida yondoshiladi. Asarni kuylashda vokalizatsiya ko'proq uchraydi, shu sababli u ijrochi uchun muhimroqdir. Boshlang'ich mashqlarni tanlashda o'quvchiga qulay



unli tovushlarni tanlash, balki ba'zi umumiy holatlarga bog'liq bo'lgan o'quvchining tabiiy ovozidan kelib chiqib tanlanadi. Masalan: agar o'quvchining ovozi qorong'u bo'g'iq va haddan ziyod chuqr bo'lsa a va i unli tovushlari, agar o'quvchining ovozi ochiq, yaqin va yapaloq bo'lsa o va u unli tovushlari tanlanadi. O'quvchini ovozida keskin kamchiliklar aniqlanmasa assosiy a tovushda mashqlarni kuylash foydaliroq bo'lib, bunda vokal sifatlari shakllanib, boshqa unli tovushlarda chiroyli obertonlarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu uslubga M.Glinka hamisha rioya qilgan. A tovushda kerakli tovush jaranglashidagi sifatlarga erishilgandan so'ng, boshqa unli tovushlarga a orqali o, e, va boshqalarga o'tilgan. Lekin bunda har bir o'quvchiga individual yondoshish kerak. Ko'chilik kuylashni tayyorlov mashqlari yopiq og'iz bilan boshlashadi. Chunki bu bosh rezonatorni sezishga yordam beradi. Bunda burun tolalarining qaltirashi va tebranishini sezish kerak. Yopiq og'izda kuylash lablarning bir biriga juftlashishi va jag'ning ozroq tushgan holatda bo'lib, esnashni his etish jarayonida amalga oshiriladi. Diapazonning o'rta qismida yuqorida mashqlar kuylanib, so'ng ovozning o'rta qismidan yuqoridan pastga legato va metso forte da bir necha mashqlar kuylanadi va ovozni tebratgan holatda ikki tomonga mashqlar kuylanadi. Ko'p vokal mashqlari oddiy va qulay bo'lgani uchun do major tonalligida yoziladi. O'qituvchi o'quvchiga qaysi tonalligda mashqni boshlash qulayligini aniqlashi lozim. Mashqlar transpozitsiya qilinib yuqoriga va pastga qarab kuylanadi. Ovozning yaxshi rivojlanishi va tekis bo'lishi uchun mashqlarni sekin tempda kuylab nafasni ham ko'rsatilgan vaqtida olish kerak. O'quvchiga birinchi muvaffaqiyatlar paydo bo'lgandan so'ng tempni tezlatish va uzun jumlalarni bir nafasda kuylatish mumkin. Mashqlar pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga kuylanadi. Yuqoridagi pastga kuylanadigan mashqlar o'quvchilarga qulay bo'ladi. Yuqorida notani kichik nafasda, pastroq tovushda o unli tovushni tasavvur etish kerak. Pastga kuylaganda tovushning yuqori holatini saqlashga intilish lozim. Bu bosh rezonatorni sezishga, registrlarning tekislanishi va silliqligiga yordam beradi. Kuylash baqiriqqa o'xshab qolmasligi uchun, tovush qanchalik yuqori bo'lmasin uni yengil va extiyotkorlik bilan olish zarurligini doimo esda tutish kerak. Pastdan yuqoriga kuylash diafragma rivojiga va ko'krak tovushlarining cho'zilishiga yordam beradi. Ushbu mashqlarni kuylaganda piano yoki metsoforte boshlab, tovush orqasidan cho'zilmasdan kuylash, ya'ni pog'onadan ko'tarilishni tasavvur etish kerak. Tovush kuchini oshirish esa faqat nafasdan to'g'ri foydalanish evaziga bo'ladi.

Passajlar- notalarning pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga kuylanishi ketma -ketligi temp tezlashganda aniqligini yo'qotmasligi kerak. Mashqlarni kuylaganda nafas burun orqali olinib, og'iz sal ochilgan holatda boladi. Boshlang'ich mashqlardan o'quvchini to'liq ovozda kuylashga majburlash mumkin emas. Birinchi navbatda tovushning sifatiga, go'zalligiga, toza va jarangdor chiqishiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Ovoz barcha notalarda to'liq, bir xil tembrda bo'lib aniq, toza, tomoq va burun tovushlaridan holi bo'lishi lozim. Ovozdan ko'krak va falset tovushlarning boshlanishi, birinchisidan ikkinchisiga o'tishda sezilmaslik, qaltirash va to'lqinlanishlarning bo'lmasligiga etibor beriladi. Barcha mashqlarni kuylaganda asosiy uchta narsaga:

1. Yuqori holat.
2. Yaqin.
3. Chuqr nafasda kuylanishiga ahamiyat beriladi.

Jumlalarni chiroyli, xis-hayajon bilan kuylash notalarni "quruq" kuylamasdan, musiqaning dinamikasi va xarakatini ko'rsata olish zarur. Ushbu qo'shiqchilik ko'nikmalarini birinchi qadamlardan o'rgatib boriladi. Vokal mashqlari turli temp, xarakter va ko'rinishlarda bo'lib bu nafas faoliyatiga, diapazoning kengayishiga va tovush kichining oshishiga yordam beradi. Odatda vokal mashqlari xursand kayfiyatda kuylanadi. Lekin, o'quvchining ovozi ifodali bo'lishi uchun ularni xis- hayajon bilan, xafa, quvnoq, jaxl bilan tantanavor, extirosli, ulug'vor, qaxrli, g'amgin, qo'rquv bilan kuylatish maqsadga muvofiq. Mashq va vokalizlarda so'z yo'qligi sababli ularni kuylaganda ma'lum bir voqealikni tasavvur etish ijobiy samara beradi. Barcha vokal mashqlarini o'qituvchi fortepianoda chalib beradi. Bunda yumshoq va past tovushda chalib, o'quvchining o'z ovozini eshitib uni nazorat etishiga imkoniyat yaratib berish lozim. Bu



erkak ovozlarga kichik oktavada, ayol ovozlarga birinchi oktavada chalish qabul qilingan, chunki erkak ovozlarni ayol ovozlardan bir oktava pastda yuradi. Lekin bazida barchasiga birinchi oktavada chalish o'quvchining yuqori va o'tkir kayfiyatda bo'lishiga yordam beradi. Vokal mashqlari va asarlarni kuylaganda - kuylash tarkibi (sxemasi) bir xil – “nafas olish” uni qisqa ushlash - kuylash. Nafasni qisqa ushlash nafas olganda uni sezish uchun kerak. Vokal mashqlari qo'shiqchilik ko'nikmalarini o'rgatish va o'stirishda katta ahamiyatga ega. Birinchi qadamlardan o'quvchiga mashqlarni kuylatish jarayonida o'qituvchi tomonidan vokal uslubiyotiga oid to'g'ri bilim berilsa va uning ovozi to'g'ri shakllansa, bu qo'shiqchining kelajak ijodiy faoliyatiga bir umrga katta ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.B.Dmitriyev “Osnovi vokalnoy metodiki” Moskva - 1963 y.
2. I.P. Brizgalov “Shkola peniya dlya basa i baritone” Toshkent 1987 y.
3. A.P. Zdanovich ‘Nekotoriye voprosi vokalnoy metodiki’